

JINOIY JAZONI YENGILLASHTIRUVCHI HOLATLAR: QO‘LLASH TARTIBI VA UNDAGI MAVJUD MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH MASALALARI

Ma’rifjanov Mirzabahrom Tohirjon o‘g‘li
Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi tinglovchisi
mirzabahrom@inbox.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jinoiy jazolarni yengillashtiruvchi holatlarni qo‘llashdagi masalalar, jinoiy jazolarni individuallashtirishda yengillashtiruvchi holatlarining e’tiborga olish masalalari, shuningdek mazkur yo‘nalishda mazkur faoliyatdagi bilan bog‘liq takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Jazo tayinlash, Jinoyat kodeksi “umumiy” va “maxsus” qismi, muqobil sanksiya, qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi.*

TITLE OF PAPER

This article presents issues in the application of criminal punishment mitigation cases, issues of consideration of mitigation cases in the individualization of criminal penalties, as well as proposals related to the activities in this direction.

Key words: *Appointment of punishment, “general” and “special” part of the Criminal Code, alternative sanction, legality, equality of citizens before the law, democratism, humanity, justice, responsibility for guilt, inevitability of responsibility.*

KIRISH(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)

Adolatli qonunlar qonuniylik va tartibni ta’minlaydi, davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini va fuqarolarning huquqiy ongini, jamiyat barqarorligi va rivojlanishini, uning siyosiy va iqtisodiy tizimlarini, davlat apparati faoliyati samaradorligini belgilaydi. Mamlakatimizda demokratik yangilanishning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri, bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli va samarali himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. 2022-yil 28-yanvar kuni qabul qilingan “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan

yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” 60-sonli Prezident farmonining 14- maqsadida ham jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish belgilab qo‘yilgan ¹. Shuningdek, 2018-yil 14-may kuni qabul qilingan “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3723-sonli Prezident qaroriga ko‘ra konsepsiyaning 2.3-bandida jazolar tizimi va ularni tayinlash mexanizmlarini qaytadan ko‘rib chiqish, eskirgan hamda zamonaviy talablarga javob bermaydigan jazolar shakli va turlarini chiqarib tashlash vazifasi belgilangan ². Aybdor deb topilgan shaxsga adolatli jazo tayinlash juda muhim hisoblanadi. Chunki shaxsga adolatli jazo tayinlanmas ekan, jazo tayinlashdan belgilangan maqsadga, ya’ni mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to‘sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadlariga erishib bo‘lmaydi. Shuningdek, shaxsga adolatli jazo tayinlanmas ekan, nafaqat shaxsning o‘zi, uning oilasi va hatto jamiyatning taqdiriga ham salbiy ta’sir etishi mumkin. Shu sababli jazo tayinlash shaxsni qilmishini kvalifikatsiya qilish kabi ahamiyatli hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, Jinoyat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori, Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida plenium qarori va boshqa normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu mavzuning mohiyatini ochib berishga muayyan darajada xizmat qiladi. Shu jumladan jnoiy jazolarni yengillashtiruvchi holatlarni o‘rganishning dolzarbligi ularning huquqiy mohiyatini, jazo tayinlanganda uni individuallashtirish mezonlari va doirasini, so‘nggi yillarda kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni hisobga olgan holda ularning har birini aniqlashtirish zarurati bilan bog‘liq.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni;

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.05.2018 yildagi “Jinoyat va jinoyatprotsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-sonli Qarori

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/ METHODS)

Jazo tayinlash institutini o'rganish, mavjud muammolar bo'yicha tahlil qilish, shuningdek, bir qator asosiy jihatlarini hisobga olib turli darslik, monografiya va ilmiy ishlar yozilgan. Yurtimiz olimlaridan - M.Rustamboyev, M.Usmonaliyev, A.Yaqubov, M.M.Mirzajonov, M.Z.Muqimova tomonidan tayyorlangan ilmiy tadqiqot ishlar, o'quv qo'llanmalar va darsliklarda jazo tayinlashdagi ayrim muammolar o'rganilgan. Shu o'rinda, M.H.Rustambayevning "O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 2-tom" darsligi, M. Usmonaliyevning "Jinoyat huquqi. Umumiy qism" darsligi, M.M.Mirzajonovning "Jinoyat huquqi. Umumiy qism" darsligi, M.Z.Muqimovaning "Sud-huquq islohotlari va jinoyat qonunini liberallashtirish masalalari" monografiya kabi darslik, o'quv qo'llanmalari va ilmiy maqolalarda jazo tayinlash atroflicha tahlil qilingan¹.

Xorijiy mualliflarning ushbu mavzuning ochib berishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, MDHga a'zo davlatlar olimlaridan - S.A.Veliyev, D.S.Dyadkin, K.I.Djayanbayev, V.K.Duyukov, S.F.Milyukov, O.V.Starkov, A.F.Mitskevich, V.A.Nikonov, V.N.Orlov, A.A.Ryabinin, M.N.Stanovskiy, A.V.Naumov, Yu.F.Bespalov, A.Yu.Bespalov, I.A.Podroykina, E.N.Jevlakov jinoiy javobgarlik va jazo tayinlashda muammolar o'zlarining bir qator izlanishlari bilan o'rganishgan. Shuningdek, X.Xart (Buyuk Britaniya), G.Rash (AQSH) va S.I. Vaybert (Shvetsiya)lar o'zlarining bir qator maqolalarida jazo tayinlash bilan bog'liq muammolarni o'rganishda izlanishlar olib borishgan.

¹ Рустамбоев М.Х., Узбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шархлар. Умумий қисм.- Тошкент, 2006. Б.581.

Усмоналиев М., Бакунов П. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм.- Насаф нашриети-2010

3. Шкредова Э.Г. Учет личности виновного и обстоятельств, смягчающих и отягчающих наказание, как один из критериев справедливого наказания // Журнал российского права. - 2016. - № 6. - С. 134.

4. Зубов В.К. Правовая культура Уголовного кодекса Российской Федерации // Российская юстиция. - 2011. - № 6. - С. 27.

5. М.Х. Рустамбоев. Узбекистон Республикаси жиноят ҳуқуқи курси. II том. Умумий қисм. Жазо тугрисида таълимот. Олий таълим муассасалари учун дарслик. -Т.: ^ М 21У0, 2011. -Б 304.

6. М.И. Качан. Обстоятельства, смягчающие наказание в российском уголовном праве. Дис. канд. юрид. наук: 12.00.08. -М., РГБ, 2005. -С. 194.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Mavzuning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishda adolatni ta‘minlash jinoyat qonunchiligining asosiy prinsiplariga — qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi, shuningdek jinoiy jazoni individuallashtirishga rioya qilishni nazarda tutadi. Jazoni individuallashtirish jazoni tayinlashda sud nafaqat sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi xususiyati va darajasini, balki aybdorning shaxsini va jazoni yengillashtiradigan va og‘irlashtiradigan ish holatlarini ham hisobga olgan holda amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Jazo – bu jinoyat huquqining muhim institutlardan biri hisoblanib, u jinoiy javobgarlikka tatbiq etishning etakchi shaklidir. Aynan jinoyatlarning jazolanishi jinoiy qonunni ijtimoiy aloqalarga ta‘sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida xizmat qiladi va huquqiy normalarni shaxs, jamiyat va davlatni noqonuniy tajovuzlardan himoya etuvchi haqiqiy mexanizmga aylantiradi. Jinoiy javobgarlik masalasi sezilarli tarzda jinoiy jazo masalasiga borib taqaladi. Jazoning samaraliligi o‘z navbatida uning belgilanishiga bevosita bog‘liqdir, chunki jazoning roli va mohiyati qanchalik to‘g‘ri tushunilsa, jinoyat sodir etgan shaxslarga ta‘sir o‘tkazish usul va metodlarini tanlash shunchalik samarali bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida jinoiy javobgarlikni ijtimoiy aloqalarni boshqarishdagi ta‘siri ortishini ko‘rsatadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holatda jazoni yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lganda, har bir ish mazmunidan kelib chiqib jazoni individuallashtirish dolzarb masalaga aylanadi chunki adolatli jazo tayinlash nafaqat jinoyat sodir etgan shaxslarga, balki ularning oilasi va qarindoshlariga, ijtimoiy sohaga, mehnat jamoalariga va umuman jamiyatga ta‘sir qiladigan muammodir. Keltirib etilgan omillarni hisobga olgan holda tanlangan mavzuning dolzarbligini shuningdek uni chuqur o‘rganilish zaruriyatini belgilaydi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Mavzuning obykti jinoiy jazoni yengillashtiruvchi holatlar va ular mavjud bo‘lganda qo‘llash tartibi va undagi mavjud muammolarni bartaraf etish masalalari

bo'lsa, predmeti sifatida jinoiy jazoni yengillashtiruvchi holatlar va ularni qo'llash tartibiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar, maxsus adabiyotlar, huquqni qo'llash amaliyoti, statistik axborotlar deb belgilab olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqot maqsad va vazifalari. ushbu dissertatsiya tadqiqotining maqsadi O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlarning jinoyat qonunchiligiga binoan yengillashtiruvchi holatlar turlarining mohiyati va tizimini tushunish bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolarni yanada o'rganish, ularning aybdorga ta'sir chegaralarini bilish hamda O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida jazoni yengillashtiradigan holatlarni tartibga solishning maqbul modelini ishlab chiqish va jinoyat sodir etgan shaxslarga jazo tayinlash va individuallashtirishda ularni hisobga olishdir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati, tadqiqot xulosalari, umumlashtirish turvchi firklari va takliflarida ifodalangan natijalar jinoyat huquqi fanining rivojlanishiga hissa qo'shib, vaziyatni hisobga olgan holda jinoiy jazoni yengillashtiruvchi holatlarni individuallashtirish masalalarini tushunishdagi mavjud yondashuvlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.05.2018 yildagi "Jinoyat va jinoyatprotsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-sonli Qarori
3. Рустамбоев М.Х., Узбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шархлар. Умумий қисм.- Тошкент, 2006. Б.581.

4. Шкредова Э.Г. Учет личности виновного и обстоятельств, смягчающих и отягчающих наказание, как один из критериев справедливого наказания // Журнал российского права. - 2016. - № 6. - С. 134.
5. Зубов В.К. Правовая культура Уголовного кодекса Российской Федерации // Российская юстиция. - 2011. - № 6. - С. 27.
6. М.Х. Рустамбоев. Узбекистон Республикаси жиноят ҳуқуқи курси. II том. Умумий қисм. Жазо тугрисида таълимот. Олий таълим муассасалари учун дарслик. -Т.: ^ М 21У0, 2011. -Б 304.
7. М.И. Качан. Обстоятельства, смягчающие наказание в российском уголовном праве. Дис. канд .юрид. наук: 12.00.08. -М., РГБ, 2005. -С. 194.